

OLIIY O'QUV YURTLARIDA "LIBOSLARNI MAKETLASH" FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI



U.M.Xodjayeve

K.Behzod nomidagi MRDI "Libos dizayni" kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Liboslarni maketlash" fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar, ularning afzalliklari hamda talabalar ijodiy tafakkuri va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Interaktiv yondashuv, 3D-modellashtirish texnologiyalari, loyihaviy metod va STEAM integratsiyasi asosida fan o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: liboslarni maketlash, zamonaviy metodlar, interaktiv ta'lim, 3D-modellashtirish, dizayn-ta'lim, STEAM.

Аннотация. В статье анализируются современные методы преподавания предмета «Моделирование одежды» в высших учебных заведениях, их преимущества и роль в развитии творческого мышления и профессиональной компетентности студентов. Даны научно обоснованные рекомендации по повышению эффективности преподавания предмета на основе интерактивного подхода, технологий 3D-моделирования, метода проектов и интеграции STEAM.

Ключевые слова: моделирование одежды, современные методы, интерактивное обучение, 3D-моделирование, дизайн-образование, STEAM.

Abstract. The article analyzes modern methods used in teaching the subject "Clothing Modeling" in higher education institutions, their advantages and their role in developing students' creative thinking and professional competence. Scientifically based recommendations are given to improve the effectiveness of teaching the subject based on an interactive approach, 3D-modeling technologies, project method and STEAM integration.

Keywords: clothing modeling, modern methods, interactive education, 3D-modeling, design education, STEAM.

Kirish.

Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish davrida moda va dizayn sohasi mutaxassislaridan nafaqat badiiy-estetik tafakkur, balki yangi texnologiyalarni qo'llash, ekologik barqarorlik va amaliy samaradorlikni ta'minlash qobiliyati ham talab qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida "Liboslarni maketlash" fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

"Liboslarni maketlash" fani dizaynerlik ta'limida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib, talabalarda chizmalarni hajmli shaklga keltirish, libos detallarini to'g'ri joylashtirish, material bilan ishlash va ijodiy g'oyalarni amalda sinab ko'rish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shunday ekan, bu fanni o'qitishda an'anaviy metodlardan tashqari innovatsion va interaktiv usullarni qo'llash zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining "Libos dizayni" kafedrasida "Liboslarni maketlash" fanidan saboq berib kelayotgan professor – o'qituvchilar – dotsent U.Xodjayeva, katta o'qituvchi Z.Saidova, M.Irgashevalarning samarali pedagogik faoliyatlari natijasida talabalar ijodiy fikr va g'oyalarini maketlash metodi yordamida amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib kelmoqdalar.

Asosiy qism.

"Maket" atamasi (frantsuzcha "maquette" so'zidan) keng ma'noda, birlamchi namuna, biror buyumning namunasi, odatda uning nisbatlarini saqlab qolgan holda kichraytirilgan hajmda takrorlanadi degan ma'noni anglatadi. Libos maketlari dizayner tomonidan qog'ozdan yoki maket matosidan maneken (yoki inson figurasida) ignalar yordamida kiyim dizaynini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bu usul dizaynning shakli va hajmi kabi muhim jihatlarni yanada ko'rgazmali va obrazli yaratish hamda, kiyimning bichimi va konstruktiv xususiyatlarini real va to'g'ri ko'rsatish imkonini beradi.

Maketlar, ayniqsa, ayollar liboslari va murakkab ayollar ustki kiyimlarini loyihalashda keng qo'llaniladi. Erkaklar kiyimida maketlar uning asosiy konstruktiv tuzilmalarining bir xilligi tufayli juda kam qo'llaniladi.

Haute couture yo'nalishida yangi kiyimni ishlab chiqish jarayoni an'anaviy tarzda eskiz emas, balki maket yaratish bilan boshlanadi. Nakolka va mulyaj bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Mulyaj - bu manekenda uch o'lchamli shaklni ijodiy obraz hosil qilgan holda yaratishga asoslangan maketlash usuli hisoblanadi. Ushbu usul nafaqat oddiy libos shakllarini, balki murakkab oqshom liboslarini hamda, noodatiy avangard liboslari shakllarini yaratish uchun foydalaniladi. Mulyaj metodi, shuningdek, nostandart qomatga libos yaratish uchun ham qo'llaniladi.

Mulyaj (frantsuzcha moulage - qolipga quyish, obyektini aniq takrorlash) - maneken yoki odam figurasida uni haqiqiy o'lchamda yaratishni o'z ichiga oladi [1.].

Liboslarni shakli va bichimi turli xil murakkablikda bo'lishi hamda konstruksiyalash qoidalarini qo'llab bo'lmaydigan xollarda libos shaklini hosil qilish usullarini o'rgatuvchi fanligidan kelib chiqib "Liboslarni maketlash" fani dolzarbligi namoyon bo'ladi. Fanning vazifalari: murakkab bichimli libos modellari shakli va hajmini tahlil qilish va ularni hosil qilishni bilish; mulyaj metodi bilan buyumlarni maketlashtirish; yangi tikish texnologiyalar va yangicha xossalari mato va materiallarni kostyum strukturasi shakliga qo'llay olishni bilish, bu yo'nalishda belgilangan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. [2.]

Kiyimlarni loyihalashda ikkita maket usuli qo'llaniladi: nakolka va mulyaj. Bu usullar dastlabki hisob-kitoblar va chizmalarsiz maneken yoki inson tanasida kiyim maketini yaratishga imkon beradi.

Bugungi kunda "Liboslarni maketlash" fanining ta'lim jarayonidagi ahamiyati borasida quyidagilarni keltirish mumkin. Birinchidan, mazkur fan talabalarda badiiy-estetik didni shakllantiradi. Ikkinchidan, bo'lg'usi dizayner ya'ni talabalarining dizayn g'oyalarini real shaklga keltirish imkoniyatini beradi, shu bilan bir qatorda talabalarni libos yaratishning texnologik jarayonlar bilan tanishtiradi, jumladan, kasbiy mahoratni amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy metodlarni qo'llash va ularning o'qitish samaradorligiga ta'siri:

fanga o'qitishda "Aqliy hujum", "klaster", "debat" va "case-study" kabi interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalarining ijodiy fikrlash malakalari faollashadi, o'z g'oyasini asoslash va himoya qilish ko'nikmalarini rivojlanadi.

fanga o'qitish jarayonida CLO 3D, Marvelous Designer, AutoCAD kabi dasturlar yordamida liboslarni virtual maketlash amaliyotini qo'llash nafaqat vaqtni tejaydi, balki libosning shakl va texnologik imkoniyatlarini oldindan tahlil qilishga yordam beradi

“Liboslarni maketlash” fanida loyihaviy yondashuv metodlarini qo'llanilishi orqali talabalar kichik yoki yirik loyiha doirasida liboslarni konseptual asosdan tortib, maketlash va namoyishga tayyorlashgacha bo'lgan bosqichlarni o'zlashtiradilar. Bu esa mustaqil izlanish va jamoaviy faoliyat olib borish kompetensiyalarini shakllantiradi.

o'quv jarayonlariga STEAM integratsiyasi - fan (science), texnologiya (technology), muhandislik (engineering), san'at (art) va matematika (mathematics) integratsiyasi asosida ta'lim olib borish libos dizaynini ko'p qirrali yondashuv asosida o'rgatishga yordam beradi.

- fanga o'qitishda amaliyot va tajribaga yo'naltirilgan ta'lim tajribalarini qo'llanilishi. Jumladan, fan doirasida talabalarining atelye, moda uylari va ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashlari. Mahalliy va xalqaro ko'rgazmalar doirasida tashkil qilinadigan mahurat darslarida qatnashish. Fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni bajarish jarayonida - Barqaror moda (sustainable fashion), qayta ishlash (recycling) kabi yo'nalishlarga doir loyihalash metodlaridan foydalanishni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda qayd etish mumkinki, o'quv jarayonlari davomida professor-o'qituvchi va talabalar hamkorligi ham ta'lim samarodirligini oshirishda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim metodlari o'zida o'qituvchining bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va motivator sifatida faoliyat olib borishini rag'batlantirib kelmoqda. Bu jarayonda talaba passiv tinglovchidan faol ishtirokchi, izlanuvchi va ijodkor darajasiga ko'tariladi.

Xulosa.

Oliy ta'lim muassasalarida “Liboslarni maketlash” fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish talabalarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma va innovatsion tafakkur bilan ta'minlaydi.

Interaktiv metodlar, 3D texnologiyalar, loyihaviy yondashuv va STEAM integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak dizaynerlarning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, zamonaviy metodlarni qo'llash orqali milliy va jahon moda sanoati talablariga javob bera oladigan ijodkor, kasbiy kompetentsiyasi yuqori va raqobatbardosh mutaxassislar yetishtiriladi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Щеглова Т.М. Макетный способ проектирования одежды /Учебно-методическое пособие для педагогических работников и студентов специальности 54.02.01 Дизайн (по отраслям)/. Старый Оскол: ОГАПОУ СТТиД, 2020. – 54 с.
2. <https://mrdi.uz/institut/main/amaliy-sanat-va-dizayn/libos-dizayni-kafedrasi/>
3. F.Z.Ataxonova. Dizayn-loyihalash /O'quv qo'llanma -Toshkent:Fan va texnologiya.2018.- 364 b
4. X.X.Komilova, U.A.Vohidova. Loyihalash. -T.: «Fan va texnologiya», 2017.-188 b.
5. Ибрагимова Ф. С. “Замонавий либос лойиҳалаш маданияти: миллий костюм аънаналари контексти доирасида”. Materials of the VI international scientific conference on September 20–21, 2016,19-23 b.
6. Bakhtiyorovich K. I., Shodikulovich T. A. The Role of Painting in the Folk Art of Surkhandarya //International Journal of Human Computing Studies. – 2021. – T. 3. – №. 2. – С. 26-28.